

UO'K: 636.32

**QO'YLARNI BO'RDOQILASH UCHUN SARFLANGAN OZUQA
KO'RSATKICHLARI**

Naurizov Toxtamis Qidirbergenovich,

q.x.f.d.(PhD), dotsent,

Qoraqalpogiston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Joldasbaeva Juldizxan Amanbaevna,

Qoraqalpogiston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, magistrant

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20525130>

Annotatsiya: Qo'ylarni konstitutsiya tiplariga qarab bo'rdoqiga boqish muddatida bir xil miqdorda ozuqa qabul qilib turlicha miqdordagi vaznga ega bo'ladi yani semiradilar. Binobarin bir kilogramm semirish uchun har xil konstitutsiyali qo'ylar har xil miqdorda ozuqa sarf qilganlar. Mazkur maqolada qo'ylarni burdoqiga boqishda ratsionlarning samaradorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar, semirish-o'sish birligiga sarflangan ozuqalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В зависимости от типа конституции, овцы получают одинаковое количество корма в течение периода откорма и приобретают разный вес, то есть набирают вес. Следовательно, овцы разной конституции затрачивали разное количество корма на килограмм жира. В данной статье приведены сведения о важных показателях, определяющих эффективность рационов при откорме овец на зерно, кормов, расходуемых на единицу набора веса.

Abstract: Depending on the type of constitution, sheep receive the same amount of feed during the fattening period and gain different weight, i.e., gain weight. Consequently, sheep of different constitutions consumed different amounts of feed per kilogram of fat. This article provides information on important indicators that determine the effectiveness of grain feeding rations for sheep, including feeds consumed per unit of weight gain.

Kalit so'zlar: chorva, sharoiti, rang, ozuqa, bo'rdoqi, ratsion, samaradorlik.

Ключевые слова: скот, условия, цвет, корм, откорм, рацион, эффективность.

Keywords: livestock, conditions, color, feed, fattening, ration, effectiveness.

OROLBO'YI HUDUDIDA IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya

Mavzuning dolzarbligi. Qorako'lhilik respublika chorvachiligida muhim o'rin tutadigan sohalardan biri hisoblanib, uning asosini tashkil etuvchi qorako'l qo'ylari qariyb 20,0 mln. gektar og'ir ekstremal sharoiti bilan xarakterlanadigan cho'l yaylovlaridan foydalanishga moslashgan. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti bo'lgan qorako'l terilari rang, rangbaranglik va turli xil gullarining jozibadorligi bilan dunyo miqyosida tengsiz hisoblanadi. Qo'ychilik xo'jaliklarida yil davomida qo'yxonalarda saqlash usuli yaylovi bo'lmagan, mavjud erning ko'p qismi haydaladigan xo'jaliklarda qo'llaniladi. Qo'ylar to'yimli oziqalar bilan qishda to'liq qo'yxonalarda ta'minlanib, yozda esa yaylovga chiqariladi. Yaylov-qo'yxona usulida saqlash yozgi va qishki yaylovi bo'lgan hamma xo'jaliklarda foydalaniladi. Bu xo'jaliklarda sovliqlarning qo'zilash davrida hamda qish va erta bahorda qo'ylarni oziqlantirish uchun etarli darajada ehtiyot oziqa bo'lishi kerak.

Materiallar va uslublar. turli konstitutsiya tipidagi qo'ylardan bir kilogramm semirish uchun sarflangan ozuqa birligi va hazm bo'ladigan protein miqdori ko'rsatkichlari, qo'ylarni burdoqiga boqishda ratsionlarning samaradorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar, semirish-o'sish birligiga sarflangan ozuqalar aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari. Bo'rdoqiga boqishda ratsionlarning samaradorligini belgilovchi muhim ko'rsatkich, semirish-o'sish birligiga sarflangan ozuqa hisoblanadi.

Bir kilogramm semirish uchun sarflangan ozuqa birligi va hazm bo'ladigan protein miqdori 1- jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

1 kilogramm semirish uchun sarflangan ozuqa birligi va hazm bo'ladigan protein miqdori


Konstitutsiya tiplari	I guruh		II guruh	
	Bir kilogramm semirish uchun sarflanadi			
	Ozuqa birligi, kg	protein, g	Ozuqa birligi, kg	protein, g
Nozik	9, 20	136	7,73	112
Mustahkam	9,64	139	8,59	126
Qo‘pol	9,53	136	8,65	129

Bu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, nozik konstitutsiyali qo'ylar semirish uchun ikki guruhda ham eng oz ozuqa sarflanganlar.

Shunday qilib, nozik konstitutsiyali qo'ylar birlashtirib bo'rdoqiga boqilganda mustahkam konstitutsiyalilarga nisbatan ozuqa birligini 3,4 foizga va proteinni 3,6 foizga, qo'pol konstitutsiyalilarga nisbatan esa tegishli 2,0 va 1,0 foizga kam sarf qilganlar.

OROLBO'YI HUDUDIDA IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya



1-rasm. 1 kilogramm semirish uchun sarflangan ozuqa birligi va hazm bo'ladigan protein miqdori diagrammasi

Agar ikki guruhdagi hayvonlarni o'zaro taqqoslasak, nozik konstitutsiyali qo'ylar alohida qilib bo'rdoqiga boqilganda ozuqani ancha kam sarf qilganliklari ko'rinadi.

Mustahkam va qo'pol konstitutsiyali qo'ylar esa birlashtirib boqqanda ham ozuqani bir oz ko'proq sarf qilganlar.

Bu vaziyat yana bir marotaba isbotlaydiki, nozik konstitutsiyali qo'ylar birlashtirib asralganda qo'pol va mustahkam konstitutsiyalilarga nisbatan zaif bo'lganliklari sababli, o'zlariga tegishli ozuqani alolmaydilar. 1 – jadvalning analizi shuni ko'rsatadiki har xil konstitutsiyali qo'ylarni ayrim-ayrim guruhlariga ajratib, bo'rdoqiga boqilganda qo'pol konstitutsiyali qo'ylar ko'p ozuqa sarflaydilar. Bu ularning boqish va saqlash sharoitiga yuqori talabchanlik ekanligini ko'rsatadi.

Qo'ychilik fermalarida qo'ylar bosh sonini to'ldirishda mustahkam konstitutsiyali, sog'lom, serpusht, yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari, har xil stresslarga chidamli, yaxshi o'sadigan va sifatli jun beradigan qo'ylar tanlanadi.

To'yimli oziqalar hayvonlarning yaxshi semizligi, serpushtligi, sersutligi va ko'p jun berishini ta'minlaydi. Qo'ylar beda, mayin o'tlar, har xil o'simliklar pichani, somon, ko'k o'tlar, qant lavlagi, kunjara, no'xat va kepakni ishtaha bilan iste'mol qiladi.

Sovliqlarni qochirishdan 1,5 - 2 oy oldin oziqalar ratsioniga qo'shimcha ravishda arpa yormasi, suli yoki makkajo'xori uni hamda biologik to'yimli oziqalar berib borilsa, ularning serpushtligi 10 – 30% ga ortadi. Bug'oz qo'ylar ko'p miqdorda mineral oziqalarga talabchan bo'ladi. Ayniqsa kalsiy va fosforiga bo'lgan kunlik talab bo'g'ozlikning oxirida bir necha o'n baravarga ortadi. Oziqa ratsionida kalsiy, fosfor, kobalt, yod, mis, temir, manganets, A, D, E vitaminlari va boshqalar etishmasa, qo'ylardan sog'lom qo'zi olish kamayadi. Qo'ylarni silos bilan oziqlantirish tufayli olinadigan sut 15 - 20 % ga, jun kirqimini 20 % ga oshirish mumkin.

OROLBO'YI HUDUDIDA IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya

Qo'ylarga bo'g'ozlikning ikkinchi yarmidan boshlab donador qilingan oziqalar berib boriladi. Qo'zilarining yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun qish vaqtlarida har xil donador oziqalar bilan oziqlantirish va yozda esa yaylovlarda boqish yaxshi natija beradi. Qo'ylar oziqasida protein etishmasa jun qirqimi 20 – 25 % ga kamayadi.

Organizmida modda almashinishi buzilmasligi va zaharlanmasligi uchun katta qo'ylar ratsioniga kuniga 10 - 15 g va qo'zilarga esa 5 - 8 g osh tuzi rejalashtiriladi.

Qo'ylarni oziqlantirishda iloji boricha yayratish maydonlaridan unumli foydalanish kerak. U erga oxurlar oralig'i 3 m qilinib joylashtiriladi. Havoning harorati - 20°S dan past bo'lgan vaqtlarda faqat dag'al oziqalar yayrash maydonlarida beriladi. Qolgan hamma oziqalar qo'yxona ichida beriladi. Mexanizatsiyalashgan fermalarda donador qilingan oziqalar berish ko'zda tutiladi. SHunday boqilgan qo'ylarning tirik vazni 21 % ga, jun qirqimi 0,47 kg ga oshgan. Donador qilingan oziqalarning 93 % ini, sochiladigan oziqalarning esa 77 % ini qo'ylar eydi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib tadqiqotlardan xulosa qilish mumkinki, har xil konstitutsiyali qo'ylarni guruhlariga ajratib, bo'rdoqiga boqilganda qo'pol konstitutsiyali qo'ylar ko'p ozuqa sarflaydilar. Qo'ylar etarli darajada suv bilan ta'minlanishi kerak. Yozda qo'ylar 2 marta, ya'ni ertalabki boqishdan keyip va kechki boqishga chiqishdan oldin hamda qishda bir marta kechqurun sug'oriladi. Er ostidan chiqqan sovuq suvlar oldindan metall sig'imlarga quyiladi va ozroq isiydi, qishda esa elektr isitgichlardan foydalaniladi. Qishning sovuq paytlari qo'ylarga pichan berilgandan keyin sug'oriladi. Qo'ylarni yaxshi sharoitda saqlash va parvarish qilish junning sifatini yaxshilaydi. Qo'tonlarda saqlangan qo'ylarning tagiga to'shama kam solinsa, juniga tezagi ko'p yopishib, siydik shimilib, jun sarg'ayib ketadi. Bu esa junning elastikligi, mahkamligi va boshqa texnologik sifatini pasaytirishga sabab bo'ladi. Yoz paytlari qo'ylarni chang va iflos yaylovlarda bokilsa ham junning sifati pasayadi. Ayniqsa yozning ikkinchi yarmida qo'y juni ko'p ifloslanadi.

Bu ularning boqish va saqlash sharoitiga yuqori talabchanlik ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov F., Gaziev A., Narziev M. Qorako'lchilikdagi muhim tadbirlar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, №2, 2011.
2. Bazarov S.R. "Qizilqum sharoitida sur rang qorako'l qo'ylarini urchitishni irsiy-naslchilik asoslari" doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2015 y. 72 bet.
3. Islamov A. Vnutritipovoe raznoobrazie i produktivnost' belix karakul'skix ovets Samarkandskogo zavodskogo stada. J.Zooveterinariya. №4. 2009
4. Mamatiminov SH.K., Tulaganova Z., Nazirov K., Karimova YO. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining oziqlanishdan zararlanishi, mikotoksikozlar J.Zooveterinariya, 2013, №12 32 bet

OROLBO'YI HUDUDIDA IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya

5. Nasimov E., CHalabaev A.J., Inoyatov A. Qora rangli qorako'l qo'zilar da rangining pigmentatsiyasini boshqa xususiyatlar bilan aloqadorligi. Sam QXI professor-o'qituvchilar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. II – qism. Samarqand, 2015 102-105 betlar.